

## Nemis Va O'zbek Tillarida Maqollarning Chog'ishtirma Tahlili

R. R. Allayorova<sup>1</sup>, R. S. Gulimmatova<sup>2</sup>, Z. K. Kurbanova<sup>3</sup>, B. K. Kurbanova<sup>4</sup>

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada nemis va o'zbek tilidagi turg'un birikma va maqollarning chog'ishtirma tahlili haqida so'z zboradi. Barchag ama'lumki, har bir til paremiologiyasini ya'ni turg'un so'z birikmalarini o'rganuvchi sohasini maqollarsiz tasavvur etish mushkul. Tilshunoslikda maqol tushunchasig aturlicha ta'rif berilgan.

**Kalit so'zlar:** sententsiy, stilistikusullar, nasihatgo'ylik, obrazlilik, ixchamlik, og'zakinutq.

Maqolvamatalartilningemotsionalobrazlimanbalarihisoblanadi. Ya'ni, maqollarxalqningpand - nasihati, ma'naviy, axloqiyxulosasi, xalqmilliyruhiningaksidir. Maqoljudachuquriytimoiyalmazmungaega. Shuninguchunba'zimaqollarbutunbirasarningmazmuniniyoritibturishimumkin.

Maqollarqisqashakldakengmazzunniuchibberadilar.

Bundayqisqalikkagapningayrimbo'laklariniishlatmasliknatijasidaerishiladi.

Masalan,

*“Ko'z qo'rqoq, qo'l botir” - “Aller Anfang ist schwer”.*

*“Hechdan ko'ra kech yaxshi” - “Besser spät als nie”*

*“Kuch - birlikda” - “Einigkeit macht stark”*

*“Avval o'yla keyin so'yla” - “Erst bedacht, dann gemacht”*

*“Yarqiragan narsaning hammasi ham oltin bo'lavermaydi” - “Es ist nicht alles Gold, was glänzt”*

Maqollarning muhim tomoni ularni oddiy fikr - mulohazalardan ajratib turuvchi narsa, ularning semantikasidir, ya'ni bunda ikki ma'noning to'qnashuvi, chatishuvini kuzatish mumkin, asl ma'no hamda ko'chma ma'no.

Masalan, “Puch yong'oq bilan qo'yingni to'ldirma”, “Ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq”. Maqollarning tuzilishida alliteratsiyaning ahamiyati kattadir. “Tomdan tarasha tushganday». Maqol va matallarda stilistik usullardan takror va parallelizmning ham ta'sir kuchi katta. Masalan, o'zbek tilida

*“Yaxshi so'z - jon ozig'i, yomon so'z - bosh qozig'i”.*

*“Qor yog'di - don yog'di”* kabi maqollar shular jumlasidandir. Bu nemis tilida shunday aks ettiriladi.

*“Einem geschenkten Gaul sieht man nicht ins Maul”, “Fleiß erwirbt, Faulheit verdirbt”, „“*

L.Boboxonova fikriga ko'ra, sententsiyaning maqoldan farqi, uni odatda ma'lum shaxsga tegishli bo'ladi xolos. Bundan tashqari, sententsiya adabiy, kitobiyxususiyatga ega. Maqol singari ularda nasihatgo'ylik, obrazlilik, ixchamlik, umumlashtiruvchilik mavjud bo'lib matnda erkinligini saqlaydi va matndan tashqi holatda ham o'zining bir butunligini, yaxlitligini yo'qotmaydi.

“Dunyoda tilsiz xalq bo'lmaganidek, maqolsiz til ham yo'q”, - deb ko'rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat

Xalq ijodiyotining o'ziga xos janri og'zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, hikmatli so'zlar, aforizmlar, ota-bobolar so'zi, donolar so'zi va h.k. Maqol – Sprichwort, matal – sprichwörtliche Redensart, masal – die Fabel, hikmatli so'zlar, aforizmlar, ota-bobolar so'zi, donolar so'zi – geflügelte Worte – крылатые слова

Maqol atamasini tilshunoslar turli adabiyotlarda turlicha talqin etadilar. O.S.Axmonova, maqolni “badiiy tugallangan hikmatli so'z, kinoyali fikrga odatda qofiyador ohang hamda fonetik shaklga egadir” deb ta'riflaydi.<sup>5</sup> Uning fikrlariga qo'shilgan R.Konradesa maqolni “Hayotiy tajribalarga asoslangan qisqa, aniq va xalq og'zaki ijodiga asosan paydo bo'lgan

<sup>1</sup> Urganch Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti, filologiya fanlari nomzodi dotsent

<sup>2</sup> Urganch Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Lingvistika: nemis tili ta'lim yo'nalishi magistranti

<sup>3</sup> Urganch Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Lingvistika: nemis tili ta'lim yo'nalishi magistranti

<sup>4</sup> Urganch Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Lingvistika: nemis tili ta'lim yo'nalishi magistranti

<sup>5</sup> O.C. Ахмановау Словарь лингвистических терминов. М., Энциклопедия, 1969, с.341

fikrlardir, ammo muallifi noaniq bo'ladi"<sup>6</sup> deb ta'riflaydi. Ushbu keltirilgan ta'riflarga ko'ra maqol xalq donishmandligi hisoblanadi deb fikr qilish mumkin.

Har narsaning tarixi bo'lgani kabi maqol va matallar o'z kelib chiqish tarixiga egadir. Nemis tilida maqolning kelib chiqish tarixini nemis olimi F.Zayler chuqur o'rgangan. U o'zining keng hajmdagi asari bo'lmish "Nemischa maqol ta'limoti" ni frazeologiya muammolariga bag'ishlaydi. U maqol so'zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: "Maqol o'rtta nemis tilida ham "Sprichwort" bo'lgan va u "men gapiraman" ma'nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so'zi bo'lishi kerak. Ko'pgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil bo'lib, keyinchalik tez-tez shevalarda ko'rina boshlaganlar".

Maqollar tuzilishiga qarab gap shaklini yoki me'yoriy shaklni olishi mumkin. Ularning strukturalari turli xil bo'ladi. T. Shippan bu haqda shunday deydi: "Biz maqollarni leksik birlik sifatida kuzatmaymiz. Maqollar hayot tajribalari hamda hayot qoidalarini o'g'itli fikr orqali ko'pincha ochib beradigan qisqa hikmatli so'zlardir. Maqol shakli har doim bitta gapdir, uning ma'nosi esa butun bir fikrdir". Haqiqatdan ham ba'zi frazeologik birliklar yaxlit aniq gaplarda sodir bo'ladi. Ha, leksemalar faqat qat'iy olingan so'zlar hamda so'z guruhlari bo'lishiga qaramasdan maqollar gap shaklini oladilar. (Gap tushunarsiz!) Maqollar gap shaklini olgan paytida, ba'zan bu yerda gapning biron grammatik bo'lagi tushib qoladi, (masalan, Keine Rose- ohne Dornen -tikonsiz gul bo'lmas) bunday holda iboralar faqat yakka so'zlarning bir-biri bilan birikishidan tashkil topadi. Shu maqsadda gaplar ham "lozim" (man soll), "kerak" (man muss), „mumkin“ (man kann) so'zlari bilan ishlatiladi: Masalan : Man soll den Tag nicht vor dem Abend loben (Kech kirmay turib kunni maqtama, Jo'jani kuzda sana).

Asosiy muammolardan biri bu – maqollarni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimai masalasidir. Maqollarni nemis tilidan o'zbek tiliga o'girishda bir nechta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Tarjima jarayonida turli mos kelmasliklar, to'siqlar mavjud bo'lishi tarjima hamda tarjimon ishini murakkablashtirishi mumkin. Masalan, maqollarning tuzilishi har ikkala tilda turli xil shaklda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida ko'proq she'r shaklida uchraydigan maqollarni nemis tiliga o'girishda ham ba'zi grammatik qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Ularni so'zma - so'z tarjima qilish esa fikrni to'liq ochib berishga to'sinlik qiladi. Ammo nemis tilidan tarjimaqilingan o'zbekcha tarjimai o'zbek xalq urf-odatlariga, qo'llanish muhiti va jarayoniga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi mumkin. Bu ham tarjima masalasining yana bir muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun maqollarni har tomonlama, ya'ni tuzilishi jihatidan ham, urf-odatlariga mos kelish jihatidan ham o'zbekchaga tarjima qilish lozim. Ma'lumki, nemis tilidagi maqollarning o'zbekcha ekvivalentlari ham talaygina. Nemis tilidagi bir maqolning o'zbek tilida uch yoki undan ortiq muqobil variantlari borligini kuzatish mumkin. Ammo bu holatda ba'zi muammolar bizni chetlab o'tmaydi, ya'ni nemis tilidagi ba'zi maqollarning xususiyatlari o'zbek tiliga mos kelish yoki mos kelmaslik masalasi ko'ndalang turadi. Masalan:

„Besser ein Sperling in der Hand als eine Taube auf dem Dach“ maqolining o'zbekcha ekvivalentlari quyidagicha:

1. „Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi“
2. „Osmondagi laylakdan yerdagi chumchuq yaxshi“
3. “Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q”
4. “Olisdagini aralavaguncha, oldingagini mo'rvala”

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga yakun yasagan holda quyidagilarni aytishimiz. Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta'sirchan qilishiga alohida e'tibor bermoq zarur.

Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo'lini aks ettiradi, shuning uchun yozuvchilar maqollarga tez-tez murojaat etadilar. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta'sirchan bo'lishida muqobil uslubiy vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko'zqanday bezak bo'lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday kuch hayotiylik bag'ishlaydi - ayrim asarlarda epirgraf qilib keltirilgan maqollar shu asar g'oyasini, maqsadini yaqqol ifodalab turish uchun xizmat qiladi.

Maqollardan nutq yoki asar kimga mo'ljallanganligiga, fikrni yorqin qilishi, ta'sir doirasiga e'tibor bergan holda o'rinli foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga yakun yasagan holda quyidagilarni aytishimiz mumkin. Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta'sirchan qilishiga alohida e'tibor bermoq zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduazizov A.A. Matn – kognitiv faoliyat mahsuli // Tiltaraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDCHTI, 2009. - 23b.
2. Bakieva G.X. Semantika: // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003. - № 2. – S.5-9.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning tiplari). II qism. –Toshkent: Navro'z, 1998. – 133b.

<sup>6</sup> Lexikon sprachwissenschaftlicher Termine [Hrsg. G. Conrad] - 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985, S.228.

4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning shakllanish va yashash qonuniyatlari). III qism. Toshkent, 1999. – 140b.
5. BegmatovE., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. I qism. – Toshkent: Navro‘z, 1997. – 93b.